

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATINING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY BAZASI TO‘G‘RISIDA

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Qonunning maqsadi va vazifalari

Ushbu Qonunning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishning huquqiy asoslarini, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqi va majburiyatlarini, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Xo‘jalik shartnomalari to‘g‘risidagi qonunchilik

Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishda yuzaga keladigan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Xo‘jalik shartnomasi tushunchasi

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuv xo‘jalik shartnomasi deyiladi.

4-modda. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi;
- taraflarning o‘zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya etish;
- taraflarning o‘zaro mulkiy javobgarligi.

5-modda. Xo‘jalik shartnomalarining subyektlari

Yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo‘jalik shartnomalarining subyektlari (taraflari) bo‘ladi.

6-modda. Xo‘jalik shartnomasi taraflarining huquqlari

Xo‘jalik shartnomasi taraflari belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo‘lgan ma‘lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rash va olish;

xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so‘rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;

boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma‘lumotlarni to‘plash;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo‘llash.

Oldingi tahrirga qarang.

Xo‘jalik shartnomasining taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

(6-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7-modda. Xo‘jalik shartnomasi taraflarining majburiyatlari

Xo‘jalik shartnomasi taraflari:

Oldingi tahrirga qarang.

xo‘jalik shartnomalari to‘g‘risidagi qonunchilikning talablariga rioya etishlari;

(7-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xo‘jalik shartnomalarining o‘z vaqtida tuzilishini ta‘minlash;

(7-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

tuzilgan xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha zimmlariga olingan majburiyatlarni o‘z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Xo‘jalik shartnomasi taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

(7-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida:

davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish shartnomalarini, shuningdek kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish ishlarini muvofiqlashtirib boradi;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi shartnoma munosabatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish chora-tadbirlarini ko‘radi.

9-modda. Davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlari

Davlat boshqaruv organlari o‘z vakolatlari doirasida:

xo‘jalik shartnomalarini tuzishda yordam ko‘rsatadi;

xo‘jalik shartnomalari hamda ularni bajarishning ahvoli to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini umumlashtiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xo‘jalik shartnomalarining bajarilish jarayonini nazorat qilib turadi;

(9-moddaning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

xo‘jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatlarining ishini tashkil etishga, yuridik maslahatchilarning malakasini oshirishga ko‘maklashadi;

Oldingi tahrirga qarang.

xo'jalik shartnomasini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonida qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'yilganligi fakti aniqlangan taqdirda, aybdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo'yadi.

(9-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

II. XO'JALIK SHARTNOMASINI TUZISH, BAJARISH, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

10-modda. Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qo'yiladigan talablar

Oldingi tahrirga qarang.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

Xo'jalik shartnomasida hisob-kitob qilish tartibi belgilanayotganda tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini qonunchilikda belgilanganidan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lab qo'yish albatta nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

(10-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-son Farmoniga muvofiq, barcha mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iste'molchilar va buyurtmachilarga, agar ular yetkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 15 foizini oldindan to'lamasalar, mahsulot jo'natishi, ishlarni bajarishi va xizmatlar ko'rsatishi taqiqlangan, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

Xo'jalik shartnomasini tuzishda taraflar tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan hamda huquqiy ekspertizadan belgilangan tartibda o'tkazilganidan so'ng e'lon qilingan o'zlarining namunaviy yoki tipovoy shartlariga (shakllariga) amal qilishlari mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Kontraktatsiya shartnomasi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi joylashgan yerda tuziladi. Kontraktatsiya shartnomasida boshqa talablar bilan bir qatorda yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun qonunchilikda nazarda tutilganidan kam bo'lmagan miqdorda avans to'lovlari nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

(10-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-son qarori bilan tasdiqlangan, Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq xo'jaliklarga mahsulotlar qiymatining kamida 50 foizi miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo'yicha — shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlar qiymatining 25 foizi miqdorida) avans mablag'lari to'lanadi.

11-modda. Xo'jalik shartnomasining shakli

Xo'jalik shartnomasi bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan yozma shaklda tuziladi. Agar shartnoma tuzish taklifi ushbu Qonunning 12-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan bo'lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya etilgan deb hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, taletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

12-modda. Xo‘jalik shartnomasini tuzish

Xo‘jalik shartnomasi, qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo‘llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo‘li bilan tuziladi.

Agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo‘yicha kelishuvga erishilgan bo‘lsa, xo‘jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

13-modda. Xo‘jalik shartnomasining amal qilishi

Xo‘jalik shartnomasi tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo‘lib qoladi.

Taraflar o‘zlari tuzgan xo‘jalik shartnomasining shartlarini ularning shartnoma tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi deb belgilab qo‘yishga haqlidirlar.

Xo‘jalik shartnomasining amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

14-modda. Xo‘jalik shartnomasini bajarish

Oldingi tahrirga qarang.

Xo‘jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonunchilikning talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo‘lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Xo‘jalik shartnomasining bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta‘minlanishi mumkin.

(14-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Batafsil ma‘lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-bobiga (“Majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash”) qarang.

15-modda. Xo‘jalik shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, xo‘jalik shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

(15-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xo‘jalik shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, taraflarning uni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Xo‘jalik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki xo‘jalik shartnomasining shartlarini bir taraflama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(15-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Taraflardan birining talabi bilan xo‘jalik shartnomasi iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo‘jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

(15-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)

Taraflardan birining xo'jalik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u xo'jalik shartnomasi tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi xo'jalik shartnomasini jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, xo'jalik shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 28-bobiga ("Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish") qarang.

16-modda. Ichki xo'jalik shartnomasini tuzish

Ichki xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida, xo'jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida yoki xo'jalik yurituvchi subyekt va uning xodimi (bir guruh xodimlari) o'rtasida tuziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, xo'jalik yurituvchi subyektlar mahsulot yetkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish yuzasidan ichki xo'jalik shartnomalarining o'zlari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzgan xo'jalik shartnomalaridagidan kam bo'lmagan hajmda tuzilishini ta'minlashlari shart.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ichki xo'jalik shartnomalariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi **353 — 385-moddalarining** normalari qo'llaniladi.

(16-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

III. XO'JALIK SHARTNOMASI BO'YICHA TALABNOMALAR VA DA'VOLAR BILDIRISH

17-modda. Talabnoma bildirish tartibi

Huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan xo'jalik yurituvchi subyekt mazkur huquq va manfaatlarni buzgan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan talabnoma bildirishga haqlidir.

Talabnoma yozma shaklda bildiriladi.

Talabnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

talabnoma bildirgan xo'jalik yurituvchi subyektning va talabnoma bildirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning nomi;

talabnoma bildirilgan sana va uning raqami;

talabnoma bildirish uchun asos bo'lgan holatlar;

talabnomada bayon etilgan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;

arz qiluvchining talablari;

talabnoma summasi va uning hisob-kitobi, arz qiluvchining to'lov va pochta rekvizitlari;

talabnomaga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Talabnoma xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari yoki rahbarning o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

Talabnoma buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo'natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo'natiladi yoxud tilxat olib topshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuklarni tashish va aloqa xizmatlari ko'rsatishga doir operatsiyalardan kelib chiqadigan talabnomalarni transport va aloqa xo'jalik yurituvchi subyektlariga bildirish tartibi va muddatlari qonunchilikda belgilab qo'yiladi.

(17-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 724-moddasi, Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog'ida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining 10-paragrafi (ro'yxat raqami 1323, 2004-yil 15-mart) hamda "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari"ning VII bobiga (ro'yxat raqami 2219, 18.04.2011-y.) qarang.

18-modda. Talabnomani ko'rib chiqish tartibi va muddatlari

Oldingi tahrirga qarang.

O'ziga talabnoma bildirilgan xo'jalik yurituvchi subyekt talabnomani olgan kundan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida unga javob qaytarishi shart.

(18-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-607-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Talabnomaga javob xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari yoki rahbarning o'rinbosari tomonidan imzolanadi va muhr bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlanadi.

(18-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

Talabnomaga javob buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo'natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo'natiladi yoxud tilxat olib topshiriladi.

Talabnoma to'liq yoki qisman tan olingan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyekt arz qiluvchiga o'zi tan olgan summani ixtiyoriy ravishda o'tkazadi.

Agar talabnomani tan olish to'g'risidagi javobda tan olingan summa o'tkazilishi haqida ma'lumot bo'lmasa, talabnoma bildirgan taraf javob olingandan so'ng yigirma kun muddat o'tgach, bank muassasasiga qarzdor tan olgan summani so'zsiz tartibda o'tkazish to'g'risidagi farmoyishni taqdim etishga haqli. Farmoyishga qarzdorning javobi ilova qilinadi.

19-modda. Da'vo arizasini berish hamda sud buyrug'ini olish uchun ariza taqdim etish

Oldingi tahrirga qarang.

Taraf rad (qisman rad) javobini olgan taqdirda yoki talabnomaga belgilangan muddatda javob olmagan taqdirda, shuningdek xo'jalik shartnomalari yuzasidan talabnoma bildirmay ham iqtisodiy sudga da'vo arisasi berishi hamda sud buyrug'ini olish uchun ariza taqdim etishi mumkin. Mazkur arizalarni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga ko'ra belgilanadi.

(19-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvardagi O'RQ-463-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son — 2018-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

IV. SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY JIHATDAN TA'MINLANISHINI TASHKIL ETISH. XO'JALIK SHARTNOMALARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKKA RIOYA ETILISHINI NAZORAT QILISH

(IV-bo'limning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

20-modda. Xo'jalik shartnomasi subyektlariga yuridik xizmat ko'rsatish

Xo'jalik shartnomasi subyektlariga yuridik xizmat ko'rsatish ularning yuridik xizmatlari yoki ana shu maqsadda shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati:

xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini, shuningdek talabnoma bildirish va uni ko‘rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da’vo ishlarini olib boradi;

xo‘jalik shartnomalari bajarilishi ustidan o‘zaro tekshiruvlar o‘tkazilishini nazorat qiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan xo‘jalik shartnomalari loyihalarining va ular bilan bog‘liq huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshiradi;

tayyorlangan xo‘jalik shartnomasi va u bilan bog‘liq huquqiy tusdagi boshqa hujjat loyihasi qonunchilik talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, o‘z e’tirozini asoslagan holda uni qo‘shimcha ravishda ishlab chiqish uchun qaytaradi;

(20-modda ikkinchi qismining beshinchi va oltinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi.



LexUZ sharhi

Qo‘shimcha ma’lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida nizom”ning 15-bandiga qarang.

21-modda. Xo‘jalik shartnomalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish

Oldingi tahrirga qarang.

Xo‘jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko‘rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

(21-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Taraflar xo‘jalik shartnomalarini tuzish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasini olishga haqli.

(21-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

Xulosada, qoida tariqasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

Oldingi tahrirga qarang.

xo‘jalik shartnomasida ko‘rsatilgan munosabatlar qaysi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinishi;

(21-modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

xo‘jalik shartnomasi shartlarining qonunchilik talablariga mos kelish-kelmasligi; taraflarning javobgarligi me‘yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilik talablariga mos kelish-kelmasligi.

(21-modda uchinchi qismining uchinchi va to‘rtinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

22-modda. Xo‘jalik shartnomalari bajarilishini o‘zaro tekshirish

Xo‘jalik shartnomalarining taraflari xo‘jalik shartnomalari o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini o‘zaro tekshirib turadilar. Shartnoma majburiyatlari buzilgan hollarda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari xo‘jalik shartnomalari bajarilishi uchun chora-tadbirlar ko‘rishi, xo‘jalik yurituvchi subyektning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi, shuningdek zarur hollarda aybdor shaxsni javobgarlikka tortish choralari ko‘rishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

23-modda. Xo‘jalik shartnomalari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish

Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni qonun hujjatlariga muvofiq prokuratura organlari amalga oshiradi. Bu organlar aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish, xo‘jalik yurituvchi subyektga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko‘radi.

(23-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

V. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

24-modda. Xo‘jalik shartnomalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf:

boshqa tarafga yetkazilgan zararni to‘laydi;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, ushbu Qonunda, o‘zga qonunchilik hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo‘ladi.

(24-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, xo‘jalik shartnomalarini bajarmaganlik va lozim darajada bajarmaganlik uchun ushbu Qonunning 25 — 32-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo‘llaniladi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

25-modda. Tovarlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to‘liq yetkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko‘rsatmaganlik uchun javobgarlik

Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to‘liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko‘rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to‘liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko‘rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.



LexUZ sharhi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 454-moddasiga muvofiq tovarlarini to‘liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun qonunda yoki shartnomada belgilangan neustoyka, agar neustoykani undirishning boshqacha tartibi qonunda yoki shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, mahsulot yetkazib beruvchidan shartnomaning amal qilish muddatida majburiyat amalda bajarilgunga qadar undiriladi.

26-modda. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berganlik uchun javobgarlik

Oldingi tahrirga qarang.

Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo‘yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo‘jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to‘lashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, to‘langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) akseptsiz tartibda undirib olinadi.

(26-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Jarimani undirish to‘g‘risidagi to‘lov talabnomasi bank muassasasiga tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to‘g‘risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o‘n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to‘g‘risidagi to‘lov talabnomasi belgilangan o‘n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

27-modda. But bo‘lmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun javobgarlik

But bo‘lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi):

tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Etkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o‘zga muddat belgilangan bo‘lmasa, o‘n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to‘lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, belgilangan tartibda to‘langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli;

etishmayotgan qismlar qiymatini qo‘shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo‘lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

Tovarlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) but bo‘lmagan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo‘lmagan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

28-modda. Tovarlarni marka belgisisiz, shuningdek tovarni idishsiz yoki o‘ralmagan holda yetkazib berganlik uchun javobgarlik

Marka belgisi qo‘yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o‘ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o‘ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo‘natilishi yoki saqlanishi kerak bo‘lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o‘z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o‘rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o‘rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

29-modda. Akkreditivdan foydalanmaganlik uchun javobgarlik

Tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) talabiga binoan qo‘yilgan akkreditiv u amal qiladigan muddat ichida foydalanilmasa, yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) akkreditivning foydalanilmagan summasining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

30-modda. To‘lov, tovar-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirganlik uchun javobgarlik

Jo‘natilgan tovarlarga oid to‘lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxasini belgilangan muddatda yubormaganlik yoki tovarlar jo‘natilganligi to‘g‘risidagi boshqa axborotni taqdim etmaganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etilmagan har bir holat uchun yetkazib berilayotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

31-modda. Tovarlar tanlab olmaslik yoki uni rad etganlik uchun javobgarlik

Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo‘yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to‘laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to‘lanishini talab qilishga haqlidir.

32-modda. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lamaganlik yoki o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun javobgarlik

To‘lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to‘lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o‘zi to‘lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Etkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

(32-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-372-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)

33-modda. Mablag‘larni akseptsiz o‘chirib tashlaganlik uchun javobgarlik

Hisobvaraqdan mablag‘larni asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga asossiz ravishda akseptsiz hisobidan chiqarilgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

34-modda. Zararni to‘lash

Neustoyka (jarima, penya) to‘laganligidan qat’i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o‘zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Etkazilgan zararlarga shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, mol-mulk yo‘qolishi yoki shikastlanishi munosabati bilan taraf qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlar, shuningdek agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajarganida taraf olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlar kiradi.

(34-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 21-dekabrda O‘RQ-311-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2011-y., 51-son, 542-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Muddatini o‘tkazib yuborish yoki shartnoma majburiyatlarini o‘zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan neustoykani (jarimani, penyani) to‘lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash, taraflarni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi, qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(34-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

35-modda. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxsning javobgarligi

Shartnoma majburiyatlari xo‘jalik yurituvchi subyekt mansabdor shaxsning aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi aniqlangan, to‘lov intizomi buzilgan, xo‘jalik yurituvchi subyekt bankrotlikka duchor qilingan yoki shartnoma munosabatlari sohasida boshqa qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, xo‘jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlikka, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175, 176¹, 176², 212 va 214-moddalariga muvofiq ma‘muriy javobgarlikka, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 181, 186, 205, 207 va 209-moddalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

36-modda. Nizolarni hal etish tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan, shartnomada nazarda tutilgan hollarda yoki taraflarning kelishuviga binoan — hakamlilik sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

(36-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1998-yil 29-avgust,
670-I-son

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 170-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 31-32-son, 315-modda; 2011-y., 51-son, 542-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son; 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

О ДОГОВОРНО-ПРАВОВОЙ БАЗЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ

І. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ

Статья 1. Цели и задачи Закона

Целью настоящего Закона является регулирование отношений, возникающих при заключении, исполнении, изменении и расторжении хозяйственных договоров между хозяйствующими субъектами.

Настоящий Закон определяет правовые основы заключения, исполнения, изменения и расторжения хозяйственных договоров, права и обязанности хозяйствующих субъектов, а также компетенцию органов государственной власти на местах и органов государственного управления в сфере договорных отношений.

Статья 2. Законодательство о хозяйственных договорах

Отношения, возникающие при заключении, исполнении, изменении и расторжении хозяйственных договоров, регулируются Гражданским кодексом Республики Узбекистан, настоящим Законом и другими актами законодательства.

Статья 3. Понятие хозяйственного договора

Хозяйственным договором признается соглашение, в силу которого одна сторона обязуется в обусловленный срок передать товары, выполнить работы или оказать услуги в сфере предпринимательской деятельности, а другая сторона обязуется принять товары, работы, услуги и оплатить их.

Статья 4. Основные принципы договорных отношений в сфере предпринимательской деятельности

Основными принципами договорных отношений в сфере предпринимательской деятельности являются:

- свобода заключения хозяйственных договоров;
- взаимная заинтересованность сторон;
- соблюдение договорной дисциплины;
- взаимная имущественная ответственность сторон.

Статья 5. Субъекты хозяйственных договоров

Субъектами (сторонами) хозяйственных договоров являются юридические лица, а также физические лица, осуществляющие предпринимательскую деятельность без образования юридического лица.

Статья 6. Права сторон хозяйственного договора

Стороны хозяйственного договора в установленном порядке имеют право:

- запрашивать и получать справки и иные документы, необходимые в связи с заключением, исполнением, изменением и расторжением хозяйственных договоров;
- запрашивать и получать письменные заключения экспертов, консультироваться у специалистов по вопросам, связанным с заключением, исполнением, изменением и расторжением хозяйственных договоров;
- заявлять ходатайства и подавать жалобы государственным и иным органам, должностным лицам и получать от них письменные мотивированные ответы;
- собирать сведения, касающиеся экономического состояния, репутации и деловых качеств другой стороны;
- применять предусмотренные законом средства и способы защиты прав и законных интересов хозяйствующих субъектов.

Стороны хозяйственного договора могут иметь и иные права, предусмотренные законодательством и договором.

Статья 7. Обязанности сторон хозяйственного договора

Стороны хозяйственного договора обязаны:

соблюдать требования законодательства о хозяйственных договорах;

обеспечивать своевременное заключение хозяйственных договоров в случаях, предусмотренных законодательством;

своевременно и в надлежащем порядке выполнять взятые на себя обязательства по заключенным хозяйственным договорам.

Стороны хозяйственного договора несут и другие обязанности, предусмотренные законодательством и договором.

Статья 8. Компетенция органов государственной власти на местах в сфере договорных отношений

Органы государственной власти на местах в пределах своей компетенции:

координируют работу по заключению и исполнению договоров поставки товаров, выполнения работ и оказания услуг для государственных нужд, а также договоров контрактации;

принимают меры по созданию условий для развития договорных отношений между хозяйствующими субъектами.

Статья 9. Компетенция органов государственного управления в сфере договорных отношений

Органы государственного управления в пределах своей компетенции:

оказывают содействие при заключении хозяйственных договоров;

обобщают статистические данные о хозяйственных договорах и состоянии их исполнения;

в предусмотренных законодательством случаях контролируют процесс исполнения хозяйственных договоров;

оказывают содействие в организации работ юридических служб хозяйствующих субъектов, повышении квалификации юрисконсультов;

в случае обнаружения факта нарушения законодательства, допущенного в процессе заключения, исполнения, изменения или расторжения хозяйственного договора, в установленном порядке ставят вопрос о привлечении к ответственности виновных лиц.

II. ПОРЯДОК ЗАКЛЮЧЕНИЯ, ИСПОЛНЕНИЯ, ИЗМЕНЕНИЯ И РАСТОРЖЕНИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОГО ДОГОВОРА

Статья 10. Требования, предъявляемые к хозяйственному договору

Хозяйственный договор должен предусматривать предмет договора, количество, качество, ассортимент, цену поставляемого товара (работы, услуги), сроки исполнения, порядок расчета, обязательства сторон, ответственность сторон при неисполнении или ненадлежащем исполнении договорных обязательств, порядок разрешения споров, реквизиты сторон, дату и место заключения договора, а также другие существенные условия, которые установлены законодательством для договоров данного вида или относительно которых по заявлению одной из сторон должно быть достигнуто соглашение.

При определении порядка расчетов в хозяйственном договоре обязательно должно быть предусмотрено условие предварительной оплаты стоимости товара (работ, услуг) в размере не менее установленного законодательством.



Комментарий LexUz

Указом Президента Республики Узбекистан от 12 мая 1995 г. № УП-1154 «О мерах по повышению ответственности руководителей предприятий и организаций за своевременность

проведения расчетов в народном хозяйстве» запрещено хозяйствующим субъектам всех форм собственности отпуск продукции, выполнение работ и оказание услуг потребителям и заказчикам без предварительной оплаты в размере не менее 15 процентов стоимости поставляемой продукции (работ, услуг) за исключением случаев, установленных законодательством.

Стороны при заключении хозяйственного договора могут руководствоваться их примерными или типовыми условиями (формами), разработанными для договоров соответствующего вида и опубликованными после прохождения правовой экспертизы в установленном порядке.

Договор контрактации заключается по месту нахождения производителя сельскохозяйственной продукции. В договоре контрактации наряду с другими требованиями должны быть предусмотрены авансовые платежи за поставляемую сельскохозяйственную продукцию в размерах не менее, чем предусмотрено законодательством.



Комментарий LexUz

В соответствии с Положением о порядке заключения, регистрации, исполнения договоров между производителями сельскохозяйственной продукции и заготовительными, обслуживающими организациями, а также мониторинга за их исполнением, утвержденным постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 4 сентября 2003 г. № 383, хозяйствам оплачиваются авансовые средства в размере не менее 50 процентов от стоимости продукции (по животноводческой продукции — в размере 25 процентов от стоимости договорных объемов).

Статья 11. Форма хозяйственного договора

Хозяйственный договор заключается в письменной форме, предусмотренной для совершения сделок. Письменная форма договора считается соблюденной, если предложение заключить договор принято в порядке, предусмотренном [статьей 12](#) настоящего Закона.

Договор в письменной форме может быть заключен путем составления одного документа, подписанного сторонами, а также путем обмена документами посредством почтовой, телеграфной, телетайпной, телефонной, электронной или иной связи, позволяющей достоверно установить, что документ исходит от стороны по договору.

Статья 12. Заключение хозяйственного договора

Хозяйственный договор заключается, как правило, путем направления оферты (предложения заключить договор) одной из сторон и ее акцепта (принятия предложения) другой стороной.

Хозяйственный договор считается заключенным, если между сторонами достигнуто соглашение по всем существенным условиям договора.

Статья 13. Действие хозяйственного договора

Хозяйственный договор вступает в силу и становится обязательным для сторон с момента его заключения.

Стороны вправе установить, что условия заключенного ими хозяйственного договора применяются к их отношениям, возникшим до заключения договора.

Окончание срока действия хозяйственного договора не освобождает стороны от ответственности за его нарушение.

Статья 14. Исполнение хозяйственного договора

Хозяйственный договор должен исполняться надлежащим образом в соответствии с его условиями и требованиями законодательства, а при отсутствии таких условий и требований — в соответствии с обычаями делового оборота.

Исполнение хозяйственного договора может обеспечиваться неустойкой, залогом, удержанием имущества должника, поручительством, гарантией, задатком и другими способами, предусмотренными законодательством или договором.



Комментарий LexUz

Для подробной информации см. главу 22 Гражданского кодекса Республики Узбекистан («Обеспечение исполнения обязательств»).

Статья 15. Изменение и расторжение хозяйственного договора

Изменение и расторжение хозяйственного договора возможно по соглашению сторон, если иное не предусмотрено законодательством или договором.

Соглашение сторон об изменении или о расторжении хозяйственного договора совершается в той же форме, что и договор.

Односторонний отказ от исполнения хозяйственного договора и одностороннее изменение условий хозяйственного договора не допускается, за исключением случаев, предусмотренных законодательством или договором.

См. предыдущую редакцию.

По требованию одной из сторон хозяйственный договор может быть изменен или расторгнут по решению экономического суда только при существенном нарушении хозяйственного договора другой стороной либо в иных случаях, предусмотренных законом или договором.

